ISSN 3060-4567

# LOGISTIKA INFRATUZILMASINI MODERNIZATSIYA QILISHDA DAVLAT - INVESTITSIYA SIYOSATINING O'RNI

*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetuti 39-b-24 Logistika guruhi 1-bosqich talabasi* ***Norqulova Jasmina***

norqulovajasmina1@gmail.com

Hozirgi kunda Oʻzbekiston Respublikasi hududida tobora rivojlanib borayotgan logistika sohasi mamlakat iqtisodiyoti oʻsishiga sezilarli darajada ta'sir koʻrsatib kelmoqda. Shu sababli ham ushbu soha infratuzilmasini moderinizatsiya qilishda davlat - investitsiya siyosatining oʻrni ahamiyatga molikdir.

Statistik ma'lumotlarga toʻxtaladigan boʻlsak, 2017-yildan buyon Oʻzbekiston iqtisodiyotiga barcha manbalar hisobidan 188 mlrd dollar investitsiya kiritilgan boʻlsa shundan 87 mlrd dollari chetdan jalb qilingan. Buning natijasi oʻlaroq investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 30 foizdan oshib, barqaror iqtisodiy oʻsishga zamin boʻlayotganini koʻrishimiz mumkin. 2024-yilda iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1,3 baravar koʻpayib, 36 mlrd dollardan oshgan. Bularning hisobiga yil boshida qoʻshimcha 70 trln soʻmlik qiymat beradigan 560 ta yirik va oʻrta loyihalar ishga tushirilgan boʻlsa 2025 - yilga kelib Oʻzbekiston 43 milliard AQSh dollari miqdorida toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rejalashtirmoqda. Bu mablagʻlar 300 dan ortiq yirik loyihalarni amalga oshirish, jumladan, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishga yoʻnaltirilgan.

Shu oʻrinda shuni ta'kidlash joizki hozirgi kunda Oʻzbekiston Respublikasi nafaqat chet eldan investitsiya jalb qilish orqali balki turli innovatsion loyihalar va kelishuvlarni qabul qilgan holda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirib kelmoqda. Jumladan,

- 2024-yil noyabr oyida Toshkent hokimiyati Xitoyning China State Construction Engineering Corporation (CSCEC) kompaniyasi bilan bir nechta infratuzilma loyihalarini amalga oshirish boʻyicha kelishuvlar imzoladi. Bu loyihalar transport va boshqa infratuzilma sohalarini rivojlantirishga oʻz hissasini qoʻshadi

ISSN 3060-4567

- 2025-yil aprel oyida Samarkandda bo‘lib o‘tgan Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari sammitida transport, energetika va raqamli aloqalarni rivojlantirish bo‘yicha 12 milliard yevrolik investitsiya paketi e’lon qilindi. Bu mablag‘lar mintaqaviy transport yo‘laklarini rivojlantirishga yo‘naltirilishi kutilmoqda

- Ashxobod kelishuvi: O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Eron, Ummon, Hindiston va Pokiston o‘rtasida tuzilgan ushbu kelishuvning asosiy maqsadi multimodal transport koridorini yaratish bo‘lib ushbu kelishuv 2016-yilda kuchga kirgan va hozirda Markaziy Osiyo va Fors ko‘rfazi o‘rtasida yuk tashishni osonlashtirishga xizmat qilib kelmoqda.

Ushbu innovatsion loyihalar investitsiyalar natijasi o‘laroq 2025-yilning birinchi choragida O‘zbekistonda yuk tashish hajmi 6,2% ga, yo‘lovchi tashish hajmi esa 5,0% ga oshdi. Bu ko‘rsatkichlar transport infratuzilmasining modernizatsiyasi va logistika salohiyatining oshirilayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo ‘lsak hozirgi kunda mamlakat hududida logistika sohasini tizimlashtirish va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilishda davlat - investitsiya siyosatining ahamiyati katta hisoblanadi shu sababli ham hozirgi kunda O ‘zbekiston respublikasi chetdan turli investetsiyalar jalb qilish orqali mamlakatda turli loyihalar transport va boshqa infratuzilma sohalarini rivojlantirishga harakat qilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Чекулаева, К. (2024). РОЛЬ УПРАВЛЕНИЯ КОРПОРАТИВНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В РАЗВИТИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ. *Экономическое развитие и анализ*, *2*(8), 448-457.

2. Ашурова, Н., Чекулаева, К., & Ачилов, М. (2025). АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА МОДЕЛЕЙ КСО: РОЛЬ БИЗНЕСА В ПРЕОДОЛЕНИИ ГЛОБАЛЬНЫХ КРИЗИСОВ. *Передовая экономика и педагогические технологии*, *2*(1), 248-261.

3. Ашурова, Н., & Чекулаева, К. (2024). ОСНОВЫ МЕТОДОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ КОРПОРАТИВНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ. *Экономическое развитие и анализ*, *2*(9), 234-242.

4. Ашурова, Н., & Чекулаева, К. (2024). РОЛЬ СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЕРСТВА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. *Передовая экономика и педагогические технологии*, *1*(1), 232-240.

5. Bakoev, K. N., & Chekulaeva, K. A. (2021). ECONOMETRIC ANALYSIS OF INDUSTRIAL PRODUCTION’S VARIANCE IN THE SECTION OF CITIES AND DISTRICTS OF THE NAVOI REGION. *Frontline Marketing, Management and Economics Journal*, *1*(08), 7-14.

6. Бакоев, Х. Н., & Чекулаева, К. А. (2021). ДИСПЕРСИОННЫЙ АНАЛИЗ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА В РАЗРЕЗЕ ГОРОДАХ И РАЙОНАХ НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ. In *ЭКОНОМИКА В ТЕОРИИ И НА ПРАКТИКЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ* (pp. 149-152).

7. Чекулаева, К. А. (2021). ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ГЕОЛОГО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ И РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОСВОЕНИЯ МРАМОРНЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ. *Universum: технические науки*, (12-2 (93)), 62-66.

8. Чекулаева, К. А. (2011). *Разработка организационно-экономического механизма рационального использования месторождений мрамора* (Doctoral dissertation, Московский государственный горный университет).

9. Чекулаева, К. А., & Эйрих, В. И. Экономика и управление на предприятии (по отраслям). *Экономика и управление*, *100*, 87-90.

10. Rabbonaqulovich, C. S. (2020). Advantages and distinctive features of venture capital. SAARJ Journal on Banking & Insurance Research, 9(3), 17-22.

11. Rabbonaqulovich, C. S. (2022). VENTURE CAPITAL AS AN ECONOMIC CATEGORY. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(05), 83-87.

ISSN 3060-4567

12. Rabbonaqulovich, C. S. (2021). The role of venture capital in the innovative development of a transformed economy. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1746-1752.

13. Rabbonaqulovich, C. S. (2024). VENCHUR KAPITALI SHAKLLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI. *Economics and Innovative Technologies*, *12*(5), 22-33.

14. Chulliyev, S. (2024). INNOVATSION JARAYONLAR BILAN VENCHUR KAPITALI O ‘RTASIDAGI BOG ‘LIQLIK VA UNGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, *2*(5), 67-74.

15. Чуллиев, С. (2024). O ‘ZBEKISTONDA INNOVATSION TADBIRKORLIK VA VENCHUR FONDLARINI QO ‘LLAB-QUVVATLASHNING USTUVOR YO ‘NALISHLARI. *Economics and Innovative Technologies*, *12*(3), 1-14.

16. Latipov, N., Komilova, N., Makhmudov, B., Berdiev, K., Moslemzadeh, M., Chulliyev, S., ... & Hamroyev, M. (2024). Econometric modeling and forecasting of environmental conditions of cities and population health problems: Case study of Navoi and Zarafshan cities. Macedonian Journal of Ecology and Environment, 26(2), 169-181.

17. Cho‘lliyev, S. (2022). O‘ZBEKISTONDA TRANSFORMATSIYALASHAYOTGAN IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHIDA VENCHUR KAPITALNING O‘RNI. *Economics and Innovative Technologies*, *10*(5), 297-306.

18. Chulliyev, S. R. (2021). VENCHUR KAPITALI IQTISODIYOTNI INNOVASION RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(10), 596-602.

19. Чуллиев, С. Р. (2020). СОСТОЯНИЕ ВЕНЧУРНОЙ ИНВЕСТИЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ. *РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ*, *67*.